



## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

△ 2867



## FARG'ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI


2022-YIL YANVAR-FEVRAL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyati korxonalarini tomonidan 3471,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,4 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,4%ni tashkil etdi.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

yanvar-fevral

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 4,3 %ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 21,6%ga Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya 18,2 % o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab  
chiqarishi hajmidagi  
ulushi, foizda

2021-yil

B

0,2%

2022-yil

B

0,3 %

yanvar-fevral

yanvar-fevral

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-fevral

FHI,%da

2775,2

3206,7

84,4

104,3



2021-y.

2022-y.

2021-y.

2022-y.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3206,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,4%ini tashkil etdi.

2021-yil  
yanvar-fevral

92,5%

2022-yil  
yanvar-fevral

92,4%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2021-yilning yanvar-fevral oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,9 % (9,2%), o'rta-quyi texnologiyali – 18,7 % (22,9 %) va quyi texnologiyalisi – 64,2 % (60,0%)ni tashkil etdi.

■ 2021-yil ■ 2022-yil

0,2 0,4

9,2 7,9

22,9 18,7

60,0 65,2


Yuqori texnologiyali


O'rta-yuqori  
texnologiyaliO'rta-quyi  
texnologiyali

Quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,7% (2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 186,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 47,2% (2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,7% (2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,7% (2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 74,5%)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da





2022-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 29,3 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 10,9 %ga oshgan), 41,9 ming tonna dizel yoqilgisi (2,9 % oshgan), 20,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari hamda 11190,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-fevral	2022-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	26,4	29,3	110,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	26,7	37,9	141,9
O'simlik yog'i ( qayta ishlangan) – ming tn	7,4	2,8	-4,6
Paxta urug'lari, ming t	4,7	23,8	19,1

yanvar-fevral

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish



Yoqilg'i moyi - Ming. t

2021-yil

8,4

2022-yil

7,1



Dizel yoqilg'isi Ming. t


2021-yil

40,7

2022-yil

41,9

Portlandsement . t



2021-yil

126,3

2022-yil

93,9



Paxta urug'lari-Ming. tonna

2021-yil

4,6


2022-yil

23,8

Farg'ona viloyatida 2022-yil yanvar-fevral oylarida jami 2430,6 ming m<sup>2</sup> silliqlangan oyna ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 2,9% ortib , portlandsement ishlab chiqarish 25,6% kamaygan . Etil spirit ishlab chiqarish 1417 ming litrni tashkil etgan va 55,8 % kamaygan.

## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 17,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 16,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 300,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 10,8 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 382,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 11,9 %ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 547,5 mlrd. soʻmni, joriy 2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 509,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi 1,2 %ga ortgan.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 9,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʼra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 8,1 mlrd. soʻmni tashkil etib 1,0 mlrd. soʻmga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.



## Toʼqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-fevral oylarida toʼqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1075,6 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida toʼqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1510,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 43,5 %ni tashkil etdi va 4,8 punktga koʼpaydi .

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʼra, kiyim ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 %ni yani jami 85,0 mlrd soʻmni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 3,0%ni tashkil etib 97,2 mlrd. soʻmga tengdir. Fargʼona viloyatida kiyim ishlab chiqarish oʼtgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 12,2 mlrd. soʻmga ortgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 206,3 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 167,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 5,2 %ni, tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 279,8 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 10,0 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 170,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,0 %ni yani 26,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 5,1 mlrd. so'mga ko'paygan. Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,9 %ni yoki 31,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2022-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 228,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmning 6,6%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,5 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-fevral	2022-yil yanvar-fevral	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	164,3	189,5	25,2
Gassimon yoqilgini ishlab chiqarish va taqsimlash	33,0	39,4	6,4

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7%ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-fevral	2022-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	15,0	19,5	4,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	5,0	5,3	0,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,5 mlrd. so'm yoki 30,0 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,0 %ga ko'paygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 896,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 101,3 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 25,8%ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-fevral

51,5%

2022-yil  
yanvar-fevral

48,4%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-fevral

48,5%

2022-yil  
yanvar-fevral


51,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 7,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 15,5%ni va Uchko'prik tumanida 13,0%ni tashkil etdi.

yanvar-fevral

## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdag'i jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 138,6 mlrd so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,5%, Uchko'prik tumanida 116,7 mlrd. so'mni, jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 13,0%, Toshloq tumani 105,7 mlrd. so'mni yoki 11,8%, shuningdek Farg'ona shahri 109,2 mlrd. so'mni 11,2 %ni tashkil etdi.



## Farg'ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona shahriga to'g'ri kelib 19,7%ni, Qo'qon shahri 18,5%ni, Toshloq tumaniga 17,6%ni, shuningdek,, Uchko'prik tumani 6,3%ni tashkil etdi.

### Farg'ona viloyati

2021-yil

2998,6 mlrd. so'm

2022-yil

3471,9 mlrd. so'm

yanvar-fevral




2021-yil

85,7%

2022-yil

105,4%



yanvar-fevral

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to'g'ri kelib, 21,3% shuningdek, Qo'qon shahri 16,2%ni ,Farg'ona shahri 16,3%,Beshariq tumani 7,0 %ni, tashkil etadi.*

**429,1** mld. so'm

2021-yil yanvar-fevral

**462,7** mld. so'm

2022-yil yanvar-fevral

**51,6%**

Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
nooziq-ovqat  
mahsulotlarining  
ulushi

**78,4 %**

2021-yil

**107,8 %**

2022-yil

Marg'ilon sh	90,2	24,1
Quvasoy sh	59,8	6,1
Qo'qon sh	105,3	75,0
Farg'ona sh	89,6	61,7
Yozyovon t	86,4	3,4
Furqat t	93,3	15,7
Dang'ara t	70,2	14,4
Farg'ona t	84,1	3,5
O'zbekiston t	67,7	6,4
Toshloq t	138,6	98,6
So'x t	119,6	3,7
Rishton t	80,9	4,6
Uchko'prik t	76,1	39,1
Quva t	135,8	13,8
Beshariq t	6923,6	32,5
Buvayda t	77,8	11,6
Bag'dod t	139,3	21,8
Qo'shtepa t	85,2	12,5
Oltiariq t	140,4	14,2


o'sish sur'ati

mld. so'm

yanvar-fevral

### Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 18,2 %ni, shuningdek, Qo'qon shahri 13,3%ni Farg'ona shahri esa 11,1% ni, tashkil etdi.



mlrd. so'm

456,2 mlrd. so'm  
2021-yil yanvar-fevral

425,8 mlrd. so'm  
2022-yil yanvar-fevral



o'sish sur'ati

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga, Qo'qon shahrida (2486,8 ming.so'm) hamda Farg'ona shahrida (2307,2 ming. so'm) ,Toshloq tumanida (1589,1 ming.so'm) ,Quvasoy shahrida (1856,3 ming. so'm),.*

	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>ming. so'm</i>
Yozyovon t.	169,3	114,7
Furqat.t	370,4	107,9
Dang'ara t.	578,6	115,4
Farg'ona t.	568,6	424,4
O'zbekiston t.	372,4	130,4
Toshloq t.	1589,1	133,5
So'x t.	149,4	130,0
Rishton t.	423,2	139,7
Uchko'prik t.	932,8	97,6
Quva t.	364,3	91,8
Beshariq t.	558,1	154,8
Buvayda t.	313,9	127,4
Bag'dod t.	489,5	153,8
Qo'shtepa t.	188,8	31,0
Oltiariq t.	469,7	264,3
Marg'ilon sh.	461,7	92,6
Quvasoy sh.	1856,3	109,4
Qo'qon sh.	2486,8	122,8
Farg'ona sh.	2307,2	92,1

### Farg'ona viloyati

2021-yil

783,8 mlrd. so'm

2022-yil

899,9 mlrd. so'm



04

2022-yil

114,8%

*o'sish sur'ati**ming. so'm*

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 232,3 ming. so'm bo'lGANI holda, Qo'qon shahrida – 537,0 ming. so'mni, -Toshloq tumanida 509,8 – ming. so'mni, Uchko'prik tumanida 497,7 ming. so'mni – tashkil etdi.

### Farg'ona viloyati

2021-yil

293,3 ming. so'm

2022- yil

232,3 ming. so'm



2022-yil

79,2 %

Yozyovon t.	82,5	115,6
Furqat.t	102,2	327,4
Dang'ara t.	44,2	144,1
Farg'ona t.	106,2	57,7
O'zbekiston t.	76,2	76,4
Toshloq t.	88,8	509,8
So'x t.	120,5	118,3
Rishton t.	35,2	48,4
Uchko'prik t.	60,1	497,7
Quva t.	117,9	140,2
Beshariq t.	327,1	162,7
Buvayda t.	62,1	116,9
Bag'dod t.	109,8	322,8
Qo'shtepa t.	74,7	119,4
Oltiariq t.	146,9	113,8
Marg'ilon sh.	63,2	245,7
Quvasoy sh.	88,1	171,7
Qo'qon sh.	75,4	537,0
Farg'ona sh.	79,8	368,5

o'sish sur'ati

ming. so'm


yanvar-fevral

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar-fevral oylarida %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 843,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,9%ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, Soʼx, Furqat, Yozyovon, Qoʼshtepa, Beshariq, Furqat tumanlari va Margʼilon shahri sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bagʼdod tumani (79,6%), Uchkoʼprik tumani (77,6%), Buvayda tumani 76,4%), Oʼzbekiston tumani (46,5%), Rishton tumanida (44,9%) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani(7,7%),Fargʼona tumani (15,2%), Quvasoy shahri (26,9%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2022-yil 1-mart holatiga ko'ra

## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 10577 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 10021 faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1412 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 14,1 %) Qo'qon shahriga, 1153 tasi (11,5%) Farg'ona shahriga, 1042 tasi (10,4 %) Marg'ilon shahriga, 672 tasi (6,7%) Uchko'prik tumaniga, 591 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga, 557 tasi (5,6 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi  
“Sanoat statistikasi bo‘limi”



Tel.: 73-241-96-28